

BÓYOQDOR RÓYAN ÓSIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI

Nağashibaev E., Tursunboev H.E.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Bóyoqdor róyan yogochlashgan gorizonta ildizpoyaga va uzunligi 1,5 metrgacha yetadigan, shoxlangan ilashib ósuvchi novdalarga ega kóp yillik ótsimon ósimlikdir. Poyalarining qirralari orqaga qayrilgan tikanli ilmoqchalar bilan qoplangan. Vatani – Órta Yer dengizi bóylari. Ildizlari va ildizpoyalari tarkibida glikozidlar – antraxinon hosilalari, shuningdek shakar, pektin va oshlovchi moddalar, organik kislotalar mavjud. Glikozidlarning parchalanishidan bóyoq moddalari (alizarin, rubidin va boshqalar) hosil bólad. Ular ishlov berishga qarab qizil rangning turli tuslarini beradi va bu ranglar asrlar davomida saqlanib qoladi [1].

Qadim zamonlardan beri bu tur tóqimachilik uchun turgun qizil bóyoq olish maqsadida keng miqyosda yetishtirilgan, biroq sintetik alizarinning sanoat usulida olinishi bilan u óz ahamiyatini ancha yóqotdi. Rossiyada bóyoqdor róyan janubiy va janubi-sharqiy hududlarda yovvoyilashgan, bázi joylarda esa iqlimlashgan ósimlik sifatida uchraydi [1].

Kimyoviy tarkibi. Ildizpoyalari va ildizlari tarkibida 5-6% oksi va oksimetilantraxinonlar erkin holda hamda glikozidlar kórinishida mavjud. Asosiy glikozid rubiretrin kislotali bólib, u alizarin-2-ksilozilglyukozidni tashkil etadi. Bundan tashqari, tarkibida boshqa antratsen hosilalari, asosan, rubiadin glikozidlari bor [2].

Dorivor xomashyo — qalinligi 3–10 mm bólgan silindrsimon, burishgan, qizgish-jigarrang ildizpoyalar va ildiz bólaklari. Kóndalang kesimida qizgish-jigarrang póstlođi va qizgish-sariq yođochi kórinadi. Hidi kuchsiz, óziga xos; támi shirinroq, keyin sal burishtiruvchi va achchiq. Suvni qóngir-qizil rangga bóyaydi (Bóyoqdor róyon bóyovchi xususiyatlari sanoatda alizarin sintezi kashf etilguncha keng foydalanilgan) [2].

Foydalanilishi. Bóyoqdor róyonning quruq ekstrakti siydik-tosh kasalligida tabletka shaklida qóllaniladi. Preparat tarkibida kalsiy va magniy fosfatlari hamda oksalatlari bólgan siydik toshlarining maydalanishiga va chiqib ketishiga yordam beradi. Spazmolitik tásir kórsatib, shu orqali toshlarning chiqishini yengillashtiradi. Aynan shu maqsadda qóllaniladigan import "Sistenal" kompleks preparati tarkibiga kiradi. Xalq tabobatida bóyoqdor róyon ildizlari damlamasi qadimdan buyrak va qovuq toshlarini eritish hámnda organizmdan chiqarish vositasi sifatida málum.

Bóyoqdor róyonning preparatlaridan azaldan nafaqat xalq, balki ilmiy tibbiyotda ham foydalanib kelinadi. Ular siydik haydovchi tásirga ega, buyrak va qovuqdagi toshlarning maydalanishiga hamda tezda chiqib ketishiga yordam beradi, buyrak jomchalari va siydik yóllari (siydik naychalari) mushaklarini bóshashtiradi. Eng katta samarani ular fosfatli (kalsiy va magniy fosfatlari) va oksalatli toshlarga qarshi kórsatadi. Shu sababli, ular buyrak-tosh kasalligi, nefropiyelit, cictit, shuningdek prostata adenomasi va prostatit bilan birga kechadigan nikturiya va siydik chiqarish yóllari spazmlarida buyuriladi [3].

Foydalanilgan ádabiyotlar:

1. Большая Российская энциклопедия Г.Ю.Конечная 2004-2017.
2. ФАРМАКОГНОЗИЯ Д.А.Муравьева, И.А.Самылина, Г.П.Яковлев.
3. Марена красильная: лекарственные и красящие свойства корней.
Маланкина Е.Л.